ISSN: 2181-0796
DOI: 10.26739/2181-0796
www.tadqiqot.uz

TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION



Alisher Navoi

VOLUME 4
ISSUE 5
2023

ISSN: 2181-0796

Doi Journal 10.26739/2181-0796

TIL, TA'LIM, TARJIMA

4-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-4, ВЫПУСК-5

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-5, ISSUE-5

TOSHKENT-2023

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

№4 (2023) DOI

Bosh muharrir:

Mirzayev Ibodulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismoilov Salohiddin
f.f.n., professor (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

Bakirov Poyon
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Boqiyeva Gulandom
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Eltazarov Jo'liboy
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Isakova Nodira
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Kiselyov Dmitriy
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Labib Said Mohammad Alem
f.f.d., dotsent
(Afg'oniston)

Mamatov Abdi
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent
(O'zbekiston)

Mirzohidova Muyassar
f.f.d., professor
(Qirg'iziston)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD
(Afg'oniston)

Pardayev Azamat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Qodirova Barno
kotib, PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Qulmamatov Do'smamat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Safarov Shahriyor
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Shahobiddinova Shohida
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sobirov Anvar
PhD
(O'zbekiston)

Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent
(O'zbekiston)

Uluqov Nosirjon
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Umurqulov Bekpo'lat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Xasanov Axmad
mas'ul kotib, PhD
(O'zbekiston)

Xayrullayev Xurshid
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy
p.f.d., professor
(O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Abdiyev Murodqosim
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Baqoyeva Muhabbat
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Berdaliyev Abduvali
f.f.d., professor
(Tojikiston)

Jabborov Xo'jamurod
f.f.d., dotsent
(O'zbekiston)

Karimov Suyun
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mamatov Abdug'ofur
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Mo'minov Siddiq
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Raximov G'anisher
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sayfullayeva Ra'no
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Suvonova Nigorabonu
f.f.n., dotsent
(O'zbekiston)

To'xtasinov Ilhom
p.f.d.
(O'zbekiston)

Yoqubov Jmoliddin
f.f.d., professor
(O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

№4 (2023)

Главный редактор:

Мирзаев Ибадулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Исмаилов Салахиддин
к.ф.н, доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бакиров Поён
д.ф.н., профессор
(Узбекистон)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Элтазаров Жулибай
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Исакова Нодира
PhD, доцент
(Узбекистан)

Киселев Дмитрий
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Лабиб Саид Моҳаммад Алем
д.ф.н.,доцент
(Афғонистон)

Маматов Абди
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Мирзаев Раҳматулла
юрист, доцент
(Узбекистан)

Мирзахидова Муяссар
д.ф.н., профессор
(Киргизистан)

Надим Моҳаммад Ҳумоюн
PhD
(Афғонистон)

Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор
(Узбекистон)

Кадирова Барно
секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Расулов Равшанҳужа
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Собиров Анвар
PhD
(Узбекистан)

Тагаева Сайёра
PhD, доцент
(Узбекистан)

Убайдуллаева Мафтуна
PhD, доцент
(Узбекистан)

Улуков Насиржан
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Умуркулов Бекпулат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Хасанов Ахмад
отв. секретарь PhD
(Узбекистан)

Хайруллаев Хуршид
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Йулдашев Казакбай
д.п.н., профессор
(Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Абдиев Мурадкасим
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Бакоева Мухаббат
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Бердалиев Абдували
д.ф.н., профессор
(Таджикистан)

Жаббаров Хужамурад
д.ф.н., доцент
(Узбекистан)

Каримов Суюн
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Маматов Абдугафур
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Муминов Сиддик
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Рахимов Ганишер
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сайфуллаева Раъно
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент
(Узбекистан)

Тухтасинов Илхам
д.п.н., профессор
(Узбекистан)

Якубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор
(Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

№4 (2023)

Chief Editor:

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Ismailov Salokhiddin
Cand.of phil.sciences, assistant professor (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD:

Bakirov Poyon
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakieva Gulandom
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Eltazarov Juliboy
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Kiselyov Dmitriy
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Habib Said Mohammad Alem
doc.of phil.scien. (Afg'oniston)

Mamatov Abdi
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)

Mirzokhidova Muyassar
Doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)

Nadim Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)

Pardaev Azamat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Kadirova Barno
Secretary, PhD, assoc.prof. (Uzbekistan)

Kulmamatov Dusmamat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Rasulov Ravshankhuja
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Safarov Shakhriyor
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Shakhobiddinova Shokhida
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Sobirov Anvar
PhD (Uzbekistan)

Tagayeva Sayyora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc.prof. (Uzbekistan)

Ulukov Nosirjon
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurkulov Bekpulat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)

Hayrullaev Hurshid
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldashev Kazakbay
Doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

Abdiev Murodkosim
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Bakaeva Mukhabbat
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Berdaliev Abduvali
Doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)

Jabborov Khojamurod
Doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)

Karimov Suyun
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Mamatov Abdugafur
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Muminov Siddik
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Rakhimov Ganisher
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Sayfullaeva Rano
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Suvonova Nigorabonu
Cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)

Tukhtasinov Ilhom
doc.of ped. scien. (Uzbekistan)

Yakubov Jamoliddin
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/;
Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

T I L SH U N O S L I K

1.O.Shukurov
Zamonaviy o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlar talqini.....7
2.M.Abjalova
UzNET - o'zbek tili leksikonini qamragan semantik tizim.....17
3.A.Faleeva
Theoretical and practical research of the formation of colloquialistics of the english language in level interpretation.....30
4.D.Mamirova
Reklama matnlarida parsellyatsiyaning o'rni.....39
5.Ш.Худайберганов
Об изучении идиоматических выражений в аспекте лингвокультурологической науки.....47
6.М.Зайниева
Матннинг глобал синтактик қурилма сифатидаги табиати ва унинг инглиз тилшунослигида ўрганилишига бир назар.....55
7.F.Xamrayev
Tilning o'zidagi nomlash an'anasi va uning tarixiy ildizlari xususida.....63
8.O.Matyakubov
Kognitiv lingvistikada modallik kategoriyasining talqin va tadqiqoti (fransuz va o'zbek ertaklari va naqllari namunasi asosida).....72
9.B.Nurmuxammedov
Toponimikaga oid termin va tushunchalar tavsifi.....86
10.M.Uliqova
"Qon-qarindosh"konseptini morfologik va sintaktik sathda ishlatilishi.....96

T A' L I M SH U N O S L I K

11.M.Ubaydullayeva
"Alpomish" dostonini o’qitishda talabalarni faollashtirish yo’llari.....106

T A R J I M A SH U N O S L I K

12.Д.Юлдашева
Эдуард сепир ва унинг "тил" асари ҳақида.....112
13. F.Ruzimurodova
Badiiy tarjimada dekonstruksiya.....119
14.A.To'xtamishev
Xitoy tilidagi 是shì unsurining bog'lovchi hamda ta'kid ma'nolarida muqobillashuvi xususida.....127

T A Q R I Z

Ф.Хаитова
Х.Абдураҳмоновнинг "Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар" асарига тақриз.....137

ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Ruzimurodova Fariza
doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston
farizaruzimurodova@gmail.com

BADIIY TARJIMADA DEKONSTRUKSIYA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy tajimada dekonstruksiyaning ahamiyati, dekonstruktiv tarjimaning tillar kesimidagi (o'zbek, ingliz, fransuz) qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, dekonstruksiya hodisasi haqida batafsil ma'lumotlar va shu kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili berilgan. Mashhur tadqiqotchi olimlar va nufuzli dekonstruksiya nazariyotchilarining fikrlariga tayangan holda, adabiy asarlardagi til, ramz va madaniy o'ziga xoslikni bildiruvchi lingvistik birliklarni qamrab oluvchi dekonstruksiyaning transformatsion imkoniyatlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali tarjimalardagi yutuq va kamchiliklar o'rganib chiqildi. Tadqiqot davomida tarjimonlar asl matnning strukturaviy jihatlarini tushunishlari kerak degan xulosaga kelindi.

Keywords: dekonstruksiya, Haydegger, plyuralizm, Jak Derrida, lingvistik ekvivalent, so'z o'yini;

Ruzimurodova Fariza
doctoral student
Tashkent state University
of Uzbek Language and Literature
named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
farizaruzimurodova@gmail.com

DECONSTRUCTION IN LITERARY TRANSLATION

ABSTRACT

In this article, the importance of deconstruction in literary translation, a comparative analysis of deconstructive translation in terms of languages (Uzbek, English, French) is presented. It also provides detailed information about the phenomenon of deconstruction and an analysis of the research carried out to date. Relying on the opinions of famous research scientists and influential deconstruction theorists, the transformative possibilities of deconstruction covering linguistic units representing language, symbols and cultural

identity in literary works were explored. Through the method of comparative analysis, achievements and shortcomings of translations were studied. The study concluded that translators need to understand the structural aspects of the original text.

Keywords: deconstruction, Heidegger, pluralism, Jacques Derrida, linguistic equivalent, word game;

Рузимуродова Фариза
докторант
Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.
Ташкент, Узбекистан.
farizaruzimurodova@gmail.com

ДЕКОНСТРУКЦИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена важность деконструкции в художественном производстве, сравнительный анализ деконструктивного перевода с точки зрения языков (узбекский, английский, французский). Также представлена подробная информация о явлении деконструкции и анализ исследований, проведенных на сегодняшний день. Опираясь на мнения известных ученых-исследователей и влиятельных теоретиков деконструкции, были исследованы преобразующие возможности деконструкции, охватывающие языковые единицы, репрезентирующие язык, символы и культурную идентичность в литературных произведениях. Методом сравнительного анализа изучены достижения и недостатки переводов. Исследование пришло к выводу, что переводчикам необходимо понимать структурные аспекты оригинального текста.

Ключевые слова: деконструкция, Хайдеггер, плюрализм, Жак Деррида, лингвистический эквивалент, игра слов;

Kirish. "Tarjima - bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi."[18]

Tarjima ma'noni bir tildan boshqa tilga o'tkazishning murakkab jarayoni sifatida doimo tilning aniqligi, ekvivalentligi va manba matniga to'g'ri kelishiga intilish bilan bog'liq bo'lgan. Ammo Jak Derridaning "dekonstruksiya" nazariyasini ilgari surishi tarjima sohasida tub burilish yasadi. Ushbu nazariya tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan lingvistik va madaniy chegaralarni, asarning asl ma'noni saqlash muammolarini, iyerarxik tuzilmalarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqazo etdi.

Tarjimashunoslik sohasida dekonstruktiv tarjima sohasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari dekonstruktiv nazariya hamda tarjima nazariyasi evolutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli tadrijiy tarqqiyotdir.

Xo'sh, bu nazariya tarjimashunoslik nazariyasiga qay tarzda va kim tomonidan kiritildi, bu haqida quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

"Dekonstruksiya" - falsafiy-tanqidiy nazariya bo'lib, fransuz faylasufi Jak Derrida ijodida vujudga kelgan. "Deconstruction" *(ˌdiː.kənˈstrʌkʃ)*so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, quyidagicha quyidagicha yasalgan: de·con·struc·tion.

Bu so'zning ma'nolari quyidagicha:

1. "Ma'nolar va ierarxik qarama-qarshiliklar (falsafiy yoki adabiy asardagi asosiy atamalar orasidagi kabi) har doim ma'no har kimning o'z dunyoqarashiga bog'liqligini

ta'kidlaydigan falsafiy-tanqidiy oqim"[19].

2. Ushbu istilohga Cambridge English Dictionary da quyidagicha izoh beriladi: "biror narsani uning ma'nosini tushunish uchun alohida qismlarga ajratish, asosan, bu avvalgi tushunchadan boshqacha tarzda tushunilganida"[20].

Umuman olganda dekonstruksiya bu falsafaning tanqidiy tahlil yondashuvlaridan biri bo'lib, tilning ichki imkoniyatlari, konseptual sistemalariga, ma'nolar orasidagi aloqalar hamda ichki faraziy ifoda usullariga tayanadi.

Ushbu falsafiy-nazariy oqim asoschisi fransuz faylasufi Jak Derreda 1930-yilning 15-iyulida Fransiyaning o'sha paytdagi mustamlakasi hisoblangan El-Biar (Jazoirning chekka hududlarida biri)sefardilarga oid yahudiy oilasida tug'ilgan [21].

Ikkinchi jahon urushidan keying yillarda Derreda falsafani o'rgana boshladi. 1449-yilda u Parijga ko'chib o'tdi va u yerda nufuzli hisoblangan oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lmish "Ecole Normale Sup?rieure"ga kirish imtihonlariga tayyorlana boshladi. Derreda 1- marta o'tish imtihonlaridan yiqildi, ammo 2-marotaba 1952-yilda qayta topshirganida o'qishga qabul qilindi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, Derrida Ecole Normale institutiga faylasuflar va mutafakkirlarning ajoyib avlodi voyaga yetayotgan bir davrda qabul qilingan edi. Bu davrda bu oliy maktabda Fuko, Altusser, Liyotard, Bartes va Marin kabi faylasuflar ham bor edi. Merlo-Ponti, Sartr, de Bovuar, Levi-Stros, Lakan, Riko, Blanchot, Levina singari o'rta avlod vakillari ham hanuz hayot edilar. XX asarning 50-yillari fransiyada fenomenologiya asri edi, asosan oliy maktabda Derreda Gegel, Jan Hippolit va Husserl asarlari bilan yaqindan tanishdi. 60-yillarning boshlarida Derreda Haydegger va Levinaning ishlarini o'rganib chiqa boshladi va shu asnoda unda Haydeggerning ayrim farazlariga e'tirozlar rivojlana boshladi. 1964-65-yillarda "Haydegger: Borliq va tarix masalasi"(" Heidegger: The Question of Being and History") asarini e'lon qildi. 1967-yili Derreda "Yozuv va farq"("Writing and Difference"), "Ovoz va fenomenologiya"(" Voice and Phenomenon"), "Grammatologiya "("Of Grammatology") deb nomlangan 3 asarini ketma-ket e'lon qildi. Bu uchala asarda ham Derreda "dekonstruksiya"("deconstruction") istilohidan o'z loyihalarni asoslash maqsadida foydalandi. O'shandan buyon hozirgacha bo'lgan davrda bu istilohga jahon miqyosida juda ko'p murojaat etildi, ayniqsa inglizzabon olimlarning ishlarida. Qayd etish joizki, Derredaning yozish uslubi nafaqat unga buyuk shuhrat olib keldi, balki unga qarama-qarshi fikrli auditoriyani ham shakllantirdi. Uning uslubida faylasufonalikdan ko'ra adabiylikni va muammoli masalalardan ko'ra o'tmishga murojaat qilish ruhi kuchliroq. Derredada dekonstruksiya nazariyasi Haydeggerni o'rganayotib vujudga kelgan. Jak Derredaga 2002-yilda oshqozonosti bezi saratoni tashxisi qo'yildi va 2004-yil 8-oktabrda vafot etdi. Uning o'limidan keyin hayoti haqida ikkita avtobiografik asar nashr etildi ("Powell" 2006, va "Peeters" 2013.)

Dekonstruksiya hodisasi badiiy matnning ko'p talqinlilik xususiyatini, yozuvchi anglatmoqchi bo'lgan asl ma'noni saqlashi bilan birga, tarjimonga matnda o'z talqinini ham bayon qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham bunday tarjimada tarjimon asl ma'noni bera oladi, boshqacha aytganda asar ma'nosi "tirik" qoladi. Matn o'qilganda ko'plab qarama-qarshi talqinlarning hosil bo'lishi tarjimonga katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Buning natijasida tarjimon qaysi bir ma'noni tarjimada berishga ikkilanib qoladi. Bu hodisa "plyuralizm"[22] deb ataladi. Plyuralizm oxir-oqibat tarjimani qiyinlashtirib, ba'zan asl ma'no anglashilmay qolishiga sabab bo'ladi. Dekonstruksiya tildagi "qat'iy ma'no" g'oyasini rad etib, tilning o'ziga xos "mavhumlik" va "baqarorlik" xususiyatlari orqali yuzaga keladigan shartli ma'nolarini yuzaga chiqaradi. "Nazariya asoschisi Jak Derreda tarjimonlarni talqinlarning ko'pligi va til imkoniyatlarini o'zlashtirishga chorlaydi, matnning yagona, aniq ma'nosini topishga qaratilgan an'anaviy tarjimaga qarshi chiqadi"[4]

Badiiy matnlar tarjimasi uzoq vaqtlardan beri ilmiy tadqiqotlar uchun qiziqarli

mavzu bo'lib, bunda ham asosiy e'tibor tarjimada badiiy va madaniy birliklarni yetkazishda asl nusxaga sodiqlikka erishishga qaratilgan. Shu boisdan ham so'nggi o'n yilliklarda Jak Derrida va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan dekonstruksiya hodisasi adabiy va tarjima tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda. Chunki, dekonstruksiya o'ziga xos mavhumliklarni, beqarorliklarni va har ikkala tildagi ma'nolarning ochib bera olish xususiyati bilan an'anaviy tarjimadan farq qiladi.

Jak Derridaning fikriga ko'ra dekonstruktiv tarjimani amalga oshirish uchun nafaqat asardagi simvoliy ma'nolarni, balki madaniy manbaalarni ham chuqur o'rganib chiqish zarur ekan. Tilshunos olim Venuti dekonstruksiyaning qo'llanilish sabablarini "badiiy matnning asl ma'no ravonligini ta'minlash, bitta qat'iy talqindan qochish va madaniy va til bilan bog'liq birliklarni anglata olish uchun" ligini ta'kidlab o'tgan. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, tarjimaga dekonstruksiyaning qo'shilishi asl ishning madaniy yaxlitligiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda dekonstruksiyaning roli mavzui tarjimashunoslikning muhim tadqiqot muammolaridan biridir. Dekonstruksiya tushunchasi nazariy asoslari jihatidan an'anaviy tarjimashunoslikka qarama-qarshi yo'nalishdir. Dekonstruksiya til, ma'no va tasvir tushunchalari, talqinlarning ravonligi va turg'unligini qo'llab-quvvatlaydi. Bu o'z navbatida tilga xos bo'lgan qat'iy bir ma'nolilikni va yondosh turfa ma'nolilikni keltirib chiqaradi, bu esa tarjimonning vazifasini murakkablashtiradi.

Dekonstruksiya adabiy tanqidiychilikda va adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgan nazariyalardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning adabiy asarlar tarjimasida qo'llanilishi nisbatan o'rganilmagan soha bo'lib qolmoqda. Muammo shundaki, tarjima jarayonini shakllantirish, ayniqsa murakkab va nozik adabiy asarlar bilan ishlashda dekonstruksiya qay darajada tatbiq etilishi mumkin?

Badiiy matnlarning dekonstruktiv tarjimasi tarjimonlardan boshqa bir tilning murakkabliklarini, madaniyati va o'z o'rnida tarjimadagi talqin jarayonlarini ham o'rganishni talab qiladi.

Bu ma'noning tushunarliligini oshirishni, belgilangan me'yorlarni chetlab o'tishni va kitobxon e'tiborini jalb qilish singari vazifalarni o'z ichiga oladi. Badiiy tarjimada dekonstruktiv tamoyillarni qo'llash orqali tarjimonlar tarjima qilinayotgan asarni qayta inkishof etishlari, tom ma'noda aytganda o'zlariga yangi bir asar qo'lga kiritishlari kiritishlari mumkin. Bundan tashqari tarjima qilinayotgan tilda asarni talqin qilish va tushunish uchun yangi yo'llarni ochish bilan birga manba matnining mohiyatini anglatishlari mumkin[10,B.425].

Oxir oqibat, dekonstruktiv tarjimalarda qaysi tarkibiy elementlarga taqlid qilish to'g'risida qaror manba matnni tahlil qilish, maqsadli tilni chuqur tushunish va tarjimonning izohli tanlovlari to'liq o'z ichiga oladi [10,B.425].

Tarjimon o'z navbatida ikki tilning ham imkoniyatlarini, maqsadi, ta'siri, amalga oshirilish mumkinligi imkoniyatini diqqat bilan ko'rib chiqishlari lozim Tarjimada dekonstruksiya nazariyasi. Dekonstruksiya nazariyasi adabiy teoriya sifatida Jak Derrida tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, an'anaviy tarjimashunoslik tushunchalariga qarama-qarshi termin hisoblanadi va til, ma'no, va talqin uchligini ifodalaydi. U 20-asrning o'rtalarida strukturalizmga qarama-qarshi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan va matn ichidagi zidliklar va murakkabliklarni o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan [5]. Badiiy matnlarda tarjima jarayonlariga tatbiq etilganda, dekonstruksiya asarning asl nusxasi talqinini shakllantirish va asliyatni tushunishda muhim muhim rol o'ynaydi.

Tarjima jarayonlarida dekonstruksiya katta rol o'ynaydi. Beykerning fikricha, dekonstruksiya mavjudlik/mavhumlik, ma'nolilik/ma'nosizlik, va asliyat/nusxa kabi tushunchalar o'rtasidagi ikki tomonlama qarama-qarshilikni tarkibiy qismlarga ajratadi [3,B.3].

Bu esa noziklikka urg?u beradi va va ma'nolarning ko'p qirraliligi, asliyatni yanada

nozikroq tushunish imkonini beradi. Shuningdek, Jeymsonning ta'kidlashicha, (1979) dekonstruksiya matn ichidagi bo'shliq, mavhumlik va sukunatlarni yoritib beradi [7, B.130]. Adabiy asarni tarjima qilganda, dekonstruksiya tarjimonlarni asliyatda noaniq bo'lib qolgan yoki tushirib qoldirilgan narsalarni tekshirishga undaydi, o'z o'rnida bu mavhumliklar ma'noni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarjimon ushbu yashirin ma'nolarni tarjima qilingan matnning ochiqligini yoki ko'p ma'noliligini (bir necha talqin) saqlab qolish maqsadida oshkor yoki mavhum holda qoldirishi mumkin.

Bundan tashqari, Meyerning xabar berishicha, dekonstruksiya adabiy asarga hamroh bo'lgan muallif qaydlari, izohlari, so'zboshi va boshqa paratekstual elementlarga e'tiborni kuchaytiradi [10, B.425]. Bu elementlar ko'pincha qo'shimcha ma'no qatlamlarini yetkazishga xizmat qiladi va bu asarni talqin qilish uchun muhim hisoblanadi. Tarjimonlar ushbu elementlarni yodda tutishlari va ularning matndagi umumiy ma'nosini nazardan qochirmasliklari lozim.

Bundan tashqari, Dekonstruksiya iyerarxik tuzilmalarni va qat'iy toifalarni qiyinlashtiradi. Tarjima jarayonida bu tarjimonlar tillar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zgaruvchanlik dinamikasidan xabardor bo'lishlari kerakligini anglatadi.

Badiiy matnlar tarjimasida dekonstruksiyaning roliga alohida e'tibor qaratilayotgan tadqiqot ishlari hozirda nisbatan cheklangan bo'lib, hozirgacha faqatgina dekonstruksiya va tarjima o'rtasidagi kesishuvga taalluqli tadqiqotlargina mavjud.

Ushbu tadqiqotlarda asosan badiiy asarlar kontekstida dekonstruktiv nazariyalar va yondashuvlar tarjima jarayonlariga qanday ta'sir etishi va ma'nolarni yetkazib berishi mumkinligi kabi masalalar o'rganiladi.

Masalan, Beyker tarjima nazariyasi va amaliyotida dekonstruksiyani qo'llashni o'rganib chiqdi. U dekonstruktiv matnlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni tahlil qildi va dekonstruksiya an?anaviy tarjima me'yorlari va ekvivalentlik tushunchasini qayta baholashga qanday hissa qo?shishini o?rganadi. Boshqa tomondan, Chantal Rayt tarjimada dekonstruksiyaning rolini germenevtik nuqtai nazardan o'rganib chiqdi. U dekonstruktiv tamoyillar tarjimon tushunchasini manba matnini tushunish va tarjima jarayoniga ta'sir qilish, ayniqsa ma'no, til va madaniy vakillik masalalarini qayta shakllantira olishi mumkinligini tadqiq etadi.

Shuningdek, Olga Anoxina dekonstruksiyaning taniqli olimlaridan biri Jak Derrida asarlarini rus tiliga tarjima qilish bilan bog'liq muammolar va strategiyalarni ko'rib chiqdi [2]. Uning tadqiqotida Derridaning ko'p qirrali lingvistik va falsafiy qarashlarini turli madaniyatlar va lingvistik kontekstda ifodalashning o'ziga xos murakkabliklari sinchiklab o'rganib chiqilgan.

Dekonstruktiv tarjima jarayonlarida duch kelinadigan muammolar

Tarjima jarayonida dekonstruksiyani qo'llashda tarjimonlar bir qancha muammolarga duch kelishlari mumkin.

1. Birinchidan, murakkablik va mavhumlik (noaniqlik) bilan bog'liq. Dekonstruksiya tarjimonlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan matnlarning murakkabligi va mavhumliklariga urg'u beradi. Bunday matnlarni tarjima qilish bir nechta talqinlar va ma'noning tushunarliligini ehtiyotkorona ko'rib chiqishni talab qiladi.

2. Ikkinchi muammo madaniy va lingvistik o'ziga xosliklar bilan bog'liq [2]. Dekonstruksiya ko'pincha asliyat tili va madaniyatiga xos bo'lishi mumkin bo'lgan madaniy va lingvistik manbalarga tayanadi. Bunday manbalarni boshqa madaniy va lingvistik kontekstga tarjima qilish qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

3. Yana bir muammo: mavhumlik va sukunatni saqlab qolish bilan bog'liq[15]. Ushbu mavhumliklarni samarali tarjima qilish asl matnning shaffofligini va tarjima qilingan ko'rinishda mutanosiblikni mazmunli va izchil saqlab qolish o'rtasidagi nozik muvozanatni talab qiladi.

4. To'rtinchi muammo uslub va ohangga mutanosiblik bilan bog'liq [14, B.71]. Bunday uslubiy vositalarni ko'zda tutilgan samaraga putur yetkazmagan holatda tarjima qilish muammosi. Tarjimonlar asl matndagi bunday uslubiy vositalarning o'ynoqilik, istehzo yoki buzg'unchilik kayfiyatini yetkazib bera oladigan lingvistik ekvivalentini topishlari kerak bo'ladi.

Boshqa tomondan, dekonstruktiv tarjimalar bunday yondashuvga o'rganmagan o'quvchi kitobxon tarafidan qarshilik yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Asliyat ma'nosini saqlab qolish bilan birgalikda tarjimaning tarjima qilinayotgan tilda qay darajada qabul qilinishi, auditoriyani jalb qilishga moslashtirishni ham hisobga olinishi lozimligi hozirgi zamon tarjimashunosligining dolzarb masalalardan biridir.

Oxir-oqibat, dekonstruksiya mualliflik, egalik huquqi va o'zgartirilganlik darajasi va ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq axloqiy mulohazalarni keltirib chiqaradi. Tarjimonlar tarjima amaliyotida dekonstruksiyani qo'llashda bu yuklamalarni ham hisobga olishlari kerak.

Badiiy matnlar tarjimasida dekonstruksiya strategiyalari

Badiiy matnlarni tarjima qilishda dekonstruksiya strategiyalari an'anaviy tarjima me'yorlari bilan raqobatlashgan holatda, tarjima me'yorlari va manbada mavjud bo'lgan murakkabliklar, noaniqliklar va ma'nolarning ko'pligini qamrab olishga qaratilgan turli yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

1.Dekonstruksiyaning birinchi strategiyasi ko'p ma'nolilik va turfa xillikni o'z ichiga oladi [10,B.425].

Dekonstruktiv tarjima asliyat matniga xos ko'pma'nolilik va turfa xillikni o'z ichiga oladi. Tarjimonlar o'z ixtiyorlariga ko'ra ko'p talqinliliklar va lingvistik imkoniyatlarni asliyatning polisemantik tabiatidan kelib chiqib tanishtirishlari mumkin.

2.Ikkinchi strategiya bu - madaniy va lingvistik me'yor chegaralarini buzishdir [8, B.47]. Dekonstruktiv tarjima muammolari lingvistik va madaniy meyorlarni va ananaviy ifoda usullarini buzish orqali yuzaga keladi.

3.Uchinchi strategiya intertekstuallikka diqqatni qaratishdir [7, B.130]. Dekonstruktiv tarjima ko'pincha asl matndan tashqari manbalar, ishoralar yoki aks- sadolar mavjudligini bildiruvchi intertekstuallik bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Tarjimon intertekstual (matnlararo) munosabatlarni, manba matni bilan boshqa adabiy-madaniy aloqalarni tadqiq etishlari mumkin.

4.To'rtinchi strategiya ikki tomonlama qarama-qarshiliklarni so'roq ostiga qo'yishdir [6, B.503]. Dekonstruktiv tarjima til va fikrni asoslovchi mavjudlik/mavhumlik, ichki/ tashqi yoki asliyat/va uning nusxasi singari ikkilik qarama-qarshiliklarga qarshi kurashadi;

5.Beshinchi strategiya - madaniy manbalarni moslashtirish. Madaniy manbalar, frazeologik iboralar, adabiy kinoyalar tarjimada murakkabliklarni keltirib chiqaradigan qismlar hisoblanadi [12].

Dekonstruktiv tarjima yondashuvida madaniy olinmalar to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilish orqali emas, tarjima qilinayotgan tilga yaratuvchanlik orqali moslashtirib o'tkaziladi.

6.Oltinchi strategiya o?quvchilarning faolligini va izohlash erkinligini (talqin turfaligini) rivojlantirishga qaratilgan. Tarjimonlar ataylab ba'zi elementlarni talqin qilish uchun ochiq qoldirishlari mumkin, bu esa o'quvchilarning ma'no yaratish jarayonida ishtirok etishiga imkon beradi.Tarjimada dekonstruktiv strategiyalarni qo'llash manba matnning o'ziga xos xususiyatlarini, maqsadni hisobga olgan holda oqilona amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlash muhimdir. Auditoriya va tarjimaning maqsadi tarjimonlar dekonstruktiv tamoyillarni qabul qilishi va tarjima qilingan asarda izchillik, tushunarlilik va madaniy sezgirlikni saqlash o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak.

Dekonstruktiv tarjimada Uslub va ohangdorlikni saqlashga yondashuv

Dekonstruktiv tarjimalarda uslub va ohangdorlikini saqlab qolish qiyin vazifalardan

biri ekanligi hech birimizga sir emas, ammo tarjimonlar bu jihatga kelganida, turli strategiya va usullardan foydalanishlari mumkin. Tarjimaning uslubi va ohangini saqlab qolish uchun turli yondashuvlar joriy etilgan [8, B.47]. Ulardan bir nechtasini quyida ko'rib chiqamiz:

1.Birinchi yondashuv til o'yini va so'z o'yini [15]. Tarjimonlarbir xil effektni qayta yaratish uchun tarjima qilinayotgan tilda ekvivalent so'z o'yini yoki lingvistik vositalarni izlashi mumkin.

2.Ikkinchi yondashuv ritorik vositalarni takrorlashdir [9]. Tarjimonlar ushbu yondashuvda dekonstruktiv matnlarda an'anaviy ma'nodan qochish uchun kinoya, paradoks vagi perbolakabi ritorik vositalargatez-tez murojaat qilishlari mumkin. Tarjimon tarjima qilinayotgan tilda o'xshash ritorik vositalarni izlab topishi va ulardan mo'ljallangan ohangni saqlab qolish uchun foydalanishi lozim.

3.Uchinchi yondashuv madaniy va tarixiy manbalarni moslashtirishdir. Tarjimonlar matnning oqimi va uslubini saqlab qolgan holda kerakli kontekstni ta'minlash uchun izohlar, lug'atlar yoki qavs ichidagi tushuntirishlar kabi strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, ular tarjima etilayotgan tilda o'zaro madaniy aloqador bo'lgan ma'lumotni topishlari mumkin, bu esa o'xshash ma'no hosil qilishga yordam beradi.

4.Dekonstruktiv tarjimada ohang va uslubni saqlash qolishga yondashuvlardan biri strukturaviy xususiyatlarni aynan o'xshatishga, takrorlashga intilishdir [14, B.71]. Asl matnning strukturaviy elementlarini aks ettirish orqali tarjimon bir xil tarzda olib o'tish va subversiyaga erishishi mumkin.

5.Beshinchi yondashuv tarjimonning izohlari, qaydlariga e'tibor qaratishdir [13, B.181]. Dekonstruktiv yondashuvda ushbu izohlarga diqqatni qaratish asliyat matni va tarjima qilinayotgan til o'quvchilari o'rtasidagi tafovutni qisqartirib, yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, "deconstruksiya (deconstruction)" Derredaning eng mashur terminlaridan biridir. Dereda bi terminni Haydeggerning "destruction (buzish, buzilish)" atamasidan ilhomlangan holda qo'llagan.

Asliyat tasviri o'z ijodkorining qarashlari yig'indisi bo'lib, xuddi bir binoga o'xshaydi. Bunda Deskartning ilk mulohazasi shundayki, avvalgi binoni buzib, uni "de-constructing" ya'ni qismlarga bo'lib, qayta qurmoq ma'nosini beradi. Dekonstruksionist (deconstructionist) deyilganda esa bir matnni har gal o'qiganda har xil tushunadigan odam tushuniladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1.Adorno, T. W. (2002). Aesthetic theory. London. AandC Black. [2]
2.Anokhina, O. (2013). Translating Deconstruction: Problems in the Translation of Jacques Derrida's Works. University of Chicago Press.
3.Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge.
4.Derrida, J. (1974). Of Grammatology. Johns Hopkins University Press.
5.Derrida, J. (1981). Dissemination. London. The Athlone Press Ltd.
6.Hassan, I. (1986). Pluralism in postmodern perspective. Critical Inquiry,12(3), 503-520.
7.Jameson, F. (1979). Reification and utopia in mass culture. Social text, (1), 130- 148.
8.Kruger, J.L. (2004). Translating Traces: Deconstruction and the practice of Translation. Literator, 25(1), 47-71.
9.Melaney, W. D. (1997). Art as a Form of Negative Dialectic. The Journal of Speculative Philosophy,11(1).
10.Meyer, K. (2002). The "Otherness" Within "Ownness": Reading T. S. Eliot's Ash-Wednesday. Christianity and Literature, 51(3), 425-454.
11.Miall, D. S., and Kuiken, D. (1994). Foregrounding, defamiliarization, and affect: Response to literary stories. Poetics, 22(5), 389-407;
12.Munday, J. (2012). Introducing translation studies: Theories and applications (3rd ed.). Routledge.
13.Neubert, A. (2001). Some implications of regarding translations as hybrid texts. Across languages and cultures, 2(2), 181-193. Sakai, N. (2006). Translation. Theory, Culture and Society, 23(2-3), 71-78.
14.Sakai, N. (2006). Translation. Theory, Culture and Society, 23(2-3), 71-78.
15.Sim, S. (2011). Lyotard dictionary. Edinburgh University Press.
16.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima
17.https://www.merriam-webster.com/dictionary/deconstruct#:~:text=%3A%20to%20take%20apart%20or%20examine,and%20the%20right%20Wayne%20Karlin
18.https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/deconstruction
19.https://plato.stanford.edu/entries/derrida/#:~:text=Jacques%20Derrida%20(1930%E2%80%932004),texts%20but%20also%20political%20institutions
20.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Plyuralizm